XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHI

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko‘chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2022 - yil 29 - iyun VI-43-87-8-116-K/22 Sariosiyo tuman hokimligi

Tumandagi istirohat bog‘i, xiyobonlar hamda maydonning nomlarini o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Sariosiyo tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- tumanda nomi tasdiqlanayotgan istirohat bog‘i ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

- tumanda nomi tasdiqlanayotgan xiyobonlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

- tumanda nomi tasdiqlanayotgan maydon ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (O.Qosimov), tuman qurilish bo‘limi (M.So‘fiyev), Davlat kadastrlar palatasi Sariosiyo tumani filiali (I.Qurbonov)

tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan hamda tasdiqlangan istirohat bog‘i, xiyobonlar va maydonni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (M.So‘fiyev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (A.Bo‘riyev, A.Qurbonov) nomlari tasdiqlangan ushbu geografik obyektlarning kirish joylaridagi yozuvlarni o‘zgartirish va o‘rnatilishini bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (M.Xasanova), “Sariosiyo” gazetasi (A.Rahmonov)ga rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Chorshanbiyeva), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Mirzayev) zimmalariga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.P.Xujaqulov**

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman
Kengashining
2022 yil 29 iyundagi
VI-43-87-8-116-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumandagi istirohat bog‘i

nomlash to‘g‘risidagi takliflar

T/r	Geografik obyekt ningturi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tumanva viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspertiza xulosasi
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**
	Istirohat bog‘	“Do‘stlik” m.f.y	Nomsiz	“Bolajon” istirohat bog‘i	“Bolajon” istirohat bog‘i

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman
Kengashining
2022 yil 29 iyundagi
VI-43-87-8-116-K/22-son qaroriga
2-ilova

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumandagi xiyobon nomlash to‘g‘risidagi takliflar

T/r	Geografik obyekt ningturi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tumanva viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspertiza xulosasi
1	2	3	4	5	6
1.	Xiyobon	“Shahriobod” MFY	Xotira xiyoboni	Xotira xiyoboni	Xotira xiyoboni
2.	Xiyobon	“Mirzo Ulug‘bek” MFY	Shukrona xiyoboni	Shukrona xiyoboni	Shukrona xiyoboni

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman
Kengashining
2022 yil 29 iyundagi
VI-43-87-8-116-K/22-son qaroriga
3-ilova

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumandagi maydonni nomlash to‘g‘risidagi takliflar

T/r	Geografik obyekt ningturi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tumanva viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspertiza xulosasi
1	2	3	4	5	6
1	Maydon	“Feruz” MFY	Shaxtiyorlar maydoni	Shaxtiyorlar maydoni	Shaxtiyorlar maydoni